

**“O‘zbekiston -2030”stragiyasi loyihasi muhokamasida
faol ishtirok etib**

Boyjonov Mirsaydullo Mansurovich

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasida beshta asosiy yo‘nalishni ko‘rishimiz mumkin. Ularni amalga oshirish uchun 12 kichik yo‘nalish hamda 100 maqsad qamrab olingan. Birinchi ustuvor yo‘nalish har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishga bag‘ishlanib, unda 5 kichik yo‘nalish va 44 maqsad aks etgan. Mazkur ustuvor yo‘nalish ko‘rib chiqilayotgan strategiyaning eng katta qismi sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *“O‘zbekiston-2030”, ustuvor yo‘nalish*

KIRISH

Unda ta‘lim tizimi, aholi salomatligi, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishi, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash hamda madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar nazarda tutilgan. Birinchi ustuvor yo‘nalishda aksariyat maqsadli ko‘rsatkichlar ta‘lim qamrovini oshirish, ilm-fan va ta‘lim infratuzilmasini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda erishish ko‘rsatkichlari umumiy tusga ega. Fikrimizcha, bunda asosiy e‘tibor manzilli yondashuvga qaratilishi lozim. Xususan, loyihada maktabgacha ta‘lim va tayyorlov guruhlarini bilan qamrov darajasini 100 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Mazkur rejani amalga oshirishda hududlar bo‘yicha manzilli ishlash maqsadga muvofiq. Chunki 2019-yil holatiga ko‘ra 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrovi Toshkent shahrida 102 foizni, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Samarqand viloyatlarida 80 foizdan ko‘proqni, Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Navoiy viloyatlarida 70-80 foiz atrofida, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida 70 foizdan kamroqni tashkil etgan. Shu sababli

maktabgacha ta'lim bilan qamrovni oshirish masalasini aynan qamrov darajasi past bo'lgan hududlardan boshlash lozim.

ASOSIY QISM

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Aktam Haitov ishtirokida poytaxtimizdagi INNO-innovatsion o'quv va ishlab chiqarish texnoparkida yangilanayotgan Konstitutsiya mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi. Spiker o'rinbosari A.Haitov yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlar haqida to'xtalar ekan, taklif etilayotgan normalarda insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlash maqsadi mujassamligini, unda aholimiz barcha qatlamlarining manfaatlari aks ettirilgani, taklif va tavsiyalari inobatga olinganini bildirdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda yoshlarga nafaqat ertangi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan muhim kuch, balki jamiyat taraqqiyotining mustahkam tayanchi sifatida qaraladi. Yoshlar tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, yorug' kelajagimiz bunyodkori hisoblanib, ular barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Bugungi kunda ham yangi O'zbekiston yoshlariga har tomonlama e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yurtimizda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan o'g'il-qizlarni tarbiyalash uchun davlatimiz tomonidan barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Yangilanayotgan konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasida kelib tushgan ko'p sonli takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. U xalqaro standartlarga, eng muhimi, O'zbekiston xalqining xohish-irodasi va orzu-istaklariga to'liq mos keladi,-deydi A.Haitov. Masalan, Bosh qomusimizda Oila, bolalar va yoshlar uchun alohida bob ajratilmoqda. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga

boʻlgan mehr-muhabbat tuygʻularini shakllantirish toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilishi belgilanayapti.

Shuningdek, yoshlarning taʼlim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli boʻlishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritilyapti. Davlat shu orqali oʻz zimmasiga muhim majburiyatlarni olmoqdaki, mazkur normalar, nafaqat yoshlar manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun muhimdir. Tadbirda soʻzga chiqqanlar Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan bugunga qadar 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushgani, ularning 60 foizdan ortigʻi bevosita yoshlar tomonidan berilganini alohida qayd etdilar. Yoshlar tomonidan oʻrtaga tashlangan savollarga Spiker oʻrinbosari batafsil javob qaytardi.

Yangi Oʻzbekistonni siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim oʻrin tutgan va ayni vaqtda jamoatchilik tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining yaratilishida “Adolat” SDP Andijon viloyati kengashi faollarining ham munosib hissasi bor. Chunki loyiha muhokamasida partiyadoshlarimiz faol ishtirok etib, oʻz takliflarini bildirdi. Bu takliflar davlat va jamiyat rivojiga qaratilgani bilan eʼtiborli. Xabaringiz bor, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari loyihalari keng jamoatchilik uchun muhokamaga qoʻyildi. Unda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yoʻlida amalga oshiriladigan bir qancha maqsad va vazifalar ham belgilab berilgan.

Jumladan, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar” qatoriga kirish asosiy maqsadlardan biridir.

Shuningdek:

- fiskal barqarorlikni taʼminlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish;
- mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilgʻor texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish;

-sanoatning “drayver” sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish;

-mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi.

Strategiyada bank sohasini rivojlantirishga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. 2030-yilgacha bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Qolaversa, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish hamda iqtisodiyot va aholini zaruriy energiya resurslari bilan uzluksiz ta‘minlash belgilab qo‘yilgan.

Kelgusi 7 yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari loyihalari joriy yilning 31-iyulidan boshlab regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallarida keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari oson qabul qilish va tushunish uchun qulay shaklda ifodalangan bo‘lib, unda 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsad nazarda tutilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari loyihalarida muddatlar va ijrochilar kesimidagi amaliy vazifalar, erishiladigan aniq maqsadli ko‘rsatkichlar va strategiyani amalga oshirish doirasida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati tasdiqlanmoqda.

Fuqarolardan loyihalarning muhokamasida faol ishtirok etib, mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan takliflarni regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallariga yuborishlarini so‘raymiz.

Mahalliy Kengashlar o‘z hududlarida Strategiyani yillar kesimida amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi va har oyda muhokama qilib boradi har chorakda Strategiya amalga oshirilishini tanqidiy muhokama qilib

boradi, o'z vaqtida va to'liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan vazirlarga nisbatan tegishli choralar ko'radi Hukumat 8 har oyda Strategiya bajarilishini monitoring qilib, uni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqadi, ijrosi ta'minlanmagan bandlar bo'yicha mansabdor shaxslarning javobgarligi masalalariga oid takliflarni kiritadi Strategik islohotlar agentligi bilan hamkorlikda. Bugun yurtimiz hayotining barcha jabhalarida o'zgarish, islohotlar epkini kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yo'q. Ayniqsa, so'nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to'siq bo'layotgan og'riqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir so'z bilan aytganda, bunday tarixiy evrilishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Mazkur islohotlar zamirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingani Yangi O'zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur hujjat yurtimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va ulkan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 11 sentyabrida imzolangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga tayanch vosita bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. Zero, farmon muqaddimasida "yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda", deb alohida ta'kidlangani bejiz emas. Natijada yurtdoshlarimizning yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash ustuvor maqsad sifatida

belgilangani qayd etildi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqlarini yodga olsak:

“Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik.

Mana shunday huquqiy asosda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un bo‘lib, biz o‘z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to‘la va qat’iy bajarmoqdamiz”.

Ma’lumki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan bo‘lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi. O‘z navbatida, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ushbu hujjatning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan. Strategiyada belgilangan yo‘nalishlarning barchasida aholi, ya’ni xalq va mamlakat manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yildi. Jumladan, Strategiyaning IV bobi “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” yo‘nalishiga bag‘ishlandi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani o‘zida qamraydi. Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan. Xususan, “Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar” hamda “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar” kabi bandlarda bir qator vazifalar belgilandi:

– Elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish;

– “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi – “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta’minlash;

– Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to‘ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o‘zi oladigan tizim yaratish.

Muxtasar aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat yurtimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, balki uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Unda belgilangan maqsadlarning ijrosi o‘z vaqtida ta’minlanishi esa davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

XULOSA

Mahalliy Kengashlar o‘z hududlarida Strategiyani yillar kesimida amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi va har oyda muhokama qilib boradi har chorakda Strategiya amalga oshirilishini tanqidiy muhokama qilib boradi, o‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan vazirlarga nisbatan tegishli choralar ko‘radi Hukumat 8 har oyda Strategiya bajarilishini monitoring qilib, uni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi, ijrosi ta’minlanmagan bandlar bo‘yicha mansabdor shaxslarning javobgarligi masalalariga oid takliflarni kiritadi Strategik islohotlar agentligi bilan hamkorlikda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsad-va-vazifalar_532507
2. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-2030-strategiyasi-qabul-qilindi>
3. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--2030-strategiyasi-togrisida>